

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ILG‘OR TEXNOLOGIYALAR MARKAZI

DAVRONOV MA‘MURJON HAMROYEVICH

**IMPULS-DAVRIYLI LAZER NURI TA‘SIRIDA RUX VA TITAN
OKSIDLARINING MIKRO- VA NANOSTRUKTURALARIDA
IKKILAMCHI NURLANISH**

01.04.05 – Optika

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Davronov Ma‘murjon Hamroyevich

Impuls-davriyli lazer nuri ta‘sirida rux va titan oksidlarining mikro- va nanostrukturalarida ikkilamchi nurlanish..... 3

Давронов Маъмуржон Хамроевич

Вторичное излучение в микро- и наноструктурах оксидов цинка и титана при импульсно-периодическом лазерном возбуждении 21

Davronov Mamurjon Khamroevich

Secondary radiation in micro- and nanostructures of zinc and titanium oxides under pulse-periodic laser excitation..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ILG‘OR TEXNOLOGIYALAR MARKAZI

DAVRONOV MA‘MURJON HAMROYEVICH

**IMPULS-DAVRIYLI LAZER NURI TA‘SIRIDA RUX VA TITAN
OKSIDLARINING MIKRO- VA NANOSTRUKTURALARIDA
IKKILAMCHI NURLANISH**

01.04.05 – Optika

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PHD/FM1193 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazi va Rossiya Fanlar akademiyasining P.N.Lebedev nomidagi Fizika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raxmatullayev Ilyos Arzimurodovich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xushvaqtoev Hakim Abdulhaqovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Kasimova Guzal Karimovna
fizika-matematika fanlaridan falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi)

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.02.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «26» XII soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi instituti, 1-qavat, 114-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (104 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (99866) 239-13-87, 239-11-40; faks: (99866) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «11» XII kuni tarqatildi.
(2025-yil «11» XII dagi 104 raqamli restr bayonnomasi).



M.X.Ashurov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

R.M.Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.n., dotsent

D.I.Semenov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda titan dioksidi (TiO_2) va rux oksidi (ZnO) asosidagi mikro- va nanostrukturalarning fizik xususiyatlarini o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Masalan, TiO_2 quyosh elementlari, yorituvchi va o'z-o'zini tozalovchi qoplamalarni ishlab chiqarishda, fotokatalizda keng qo'llaniladi, shuningdek, gaz sensorlarida faol komponent hisoblanadi. ZnO katta eksiton energiyasi (60 meV) va yuqori mexanik va termik chidamliligi tufayli nanolazerlar, pyezoelektrik nanogeneratorlar, quyosh elementlari, gaz sensorlari va boshqa nanoelektronika elementlari hamda qurilmalarini yaratish uchun o'ta muhim material hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mikro- va ayniqsa, nanostrukturalar (xususan, mikro- va nanokukunlar) ularni sintez qilishning yangi usullari ishlab chiqilishi hamda keng amaliy qo'llanilishi tufayli katta qiziqish uyg'otmoqda. Bunday namunalarni batafsil o'rganish uchun ushbu tizimlarning tarkibiy xossa va xususiyatlari to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Tarkibiy element o'lchami nanometr diapazonigacha kamayganda materiallarning monokristallardan farq qiladigan yangi fizik-mexanik xossa va xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bunda ularni o'rganishning klassik usullari ko'plab cheklovlarga ega bo'lganligi sababli, tadqiqotlarning yangi, universal va arzon usullarini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyojni oshiradi.

Mamlakatimizda mikro- va nanotexnologiyalarni tadqiq etish, qo'llash va rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi olimlari tomonidan mikro- va nanostrukturaviy materiallarni tadqiq etish bo'yicha eng muhim natijalarga erishildi. Bunday tuzilmalarning o'lchov xususiyatlari, shuningdek, ularning optik va nochiqli optik xususiyatlari aniqlandi. O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasida nazarda tutilgan talablarga muvofiq, respublikada ilm-fan va texnologiyalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan fundamental vazifalarni hal etishga bag'ishlangan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy uskunalar yordamida titan va rux oksidlari asosidagi mikro- va nanostrukturalarning morfologiyasi, tuzilishi va optik xossalarni o'rganish bo'yicha muhim natijalar olingan.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlarida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi fizikani rivojlantirish oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar bo'yicha Oliy Majlisga Murojaatnomasida, 2020-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son va 2022-yil 13-yanvardagi "Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-82-son qarorlarida hamda ushbu faoliyatga taalluqli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Titan va rux oksidlari asosidagi mikro- va nanostrukturalarning morfologik, strukturaviy, optik xossalari dunyoning ko‘plab olimlari tomonidan o‘rganilgan, masalan, Rossiya olimlari (Gorelik V.S., Mixaylov M.M., Neshchimenko V.V., Averin I.A., Tarasov A.P.), AQSh (Clark D.E., Fonoberov V.A., Folz D.C.), Yaponiya (Ohsaka T., Izumi F.), Polsha (Šćepanović M.J., Grujić-Brojčín M.), Belarus (Burakov V.S., Tarasenko N.V.), Ukraina (Lisenko O.G., Maxniy V.P.), Xitoy (Dong H., Zhou B.), Italiya (Bassi A., Cattaneo D.), Hindiston (Sridevi D., Rajendran K.V.), O‘zbekiston (Kurbanov S.S., Ibragimova E.M., Tashmetov M.Y.) olimlari va boshqa mutaxassislar tomonidan.

Xususan, mikroto‘lqinli sintez yordamida nazorat qilinadigan mikrostruktura bilan tartibga solingan ZnO tuzilmalari olingan va ushbu tuzilmalarning fizik xossalari o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijasida ZnO va TiO₂ mikro- va nanokristallarida bir qator qonuniyatlar aniqlandi hamda bunday nanostrukturalarning ko‘plab fizik xususiyatlari (strukturaviy, magnit, optik, issiqlik) yuza va kvanto‘lchamli ta’sirlar tufayli monokristall xususiyatlaridan keskin farq qilishi aniqlandi. Yupqa ZnO plyonkalarining elektr va optik xossalari kompleks tekshirildi. ZnO va TiO₂ nanoo‘lchamli strukturalarining sintez qilingan namunalarning tarkibiy va fazaviy xususiyatlari o‘rganildi. Xususan, ZnO nanokristallaridagi 390 va 520 nm fotolyuminesentsiyasi (FL)ning xarakterli maksimumlari eksiton nurlanishi va nuqsonlar bilan bog‘liqligi aniqlandi.

Sintez va fizik xossalarni o‘rganish bo‘yicha nashr etilgan ko‘plab adabiyotlar bo‘lishiga qaramasdan, ZnO va TiO₂ mikro- va nanostrukturalarining ko‘plab xossalari O‘zbekistonda ham, xorijda ham hali kam o‘rganilgan. Masalan, zarrachalar o‘lchamining kukunning optik xususiyatlariga ta’siri bo‘yicha masalalar yetarli darajada o‘rganilmagan. Bugungi kunda foton tuzoqlarida mikro- va nanostrukturalarda ikkilamchi nurlanish (IN) spektrlarini shakllantirishning qonuniyatlari va xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar nihoyatda kam.

Shunday qilib, ushbu muammolarning dolzarbligi va yetarli darajada o‘rganilmaganligi muallifning titan va rux oksidlari asosidagi mikro- va nanostrukturalarning morfologik, tarkibiy, optik xosalarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishiga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ilg‘or texnologiyalar markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga asosan va davlat ilmiy-texnik dasturlari bo‘yicha «O‘tish davri metallar va ularning oksidlari asosida nanostrukturalangan katalizatorlar olish texnologiyasini ishlab chiqish» PZ-2017092438-son loyihasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning maqsadi impuls-davriyli lazer nuri ta'sirida rux va titan oksidlarining mikro- va nanostrukturalarida ikkilamchi nurlanish spektrlarining shakllanish qonuniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

impuls-davriyli lazer nuri ta'sirida yarimo'tkazgichlar va dielektriklarning mikro- va nanokukunlarida ikkilamchi nurlanish spektrlarini o'rganish uchun rezonatorli kyuvetalar (fotonli tuzoqlar) va optik-tolali texnikaning yangi turlari asosida zaif optik signallarni qayd etishning eksperimental metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish;

mikroto'lqinli sintez usulida olingan rux oksidining yuza va tarkibi morfologiyasini o'rganish hamda ushbu strukturalarda fotoluminessentsiya va yorug'likning kombinatsion sochilish spektrlarini shakllanish mexanizmlarini aniqlash;

foton tuzoqlarda rux va titan oksidlarining mikro- va nanostrukturalarida «kombinatsion opalessentsiya» effektining vujudga kelish shart-sharoitlarini aniqlash hamda kombinatsion sochilishning samaradorligini oshirish;

rux va titan oksidlarining mikro- va nanostrukturalarida bir va ikki fotonli uyg'otilgan lyuminessentsiya spektrlarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning xususiyatlarini aniqlash;

kukunlar dispersligining ikkilamchi nurlanish signallarini oshirish samaradorligiga ta'siri sharoitlarini o'rganish;

xona haroratida lazer nurining turli intensivliklarida rux oksidining mikro- va nanostrukturalari lyuminessentsiyasi ultrabinafsha polosasi spektrlarining shakllanish tabiatini tadqiq etish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida rux va titan oksidlarining mikro- va nanostrukturalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti impuls-davriyli lazer lazer nuri ta'sirida titan va rux oksidlari mikro- va nanostrukturalarining morfologik va strukturaviy xossalari hamda ikkilamchi nurlanish spektrlarining shakllanish qonuniyatlarini hamda fizik mexanizmlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari qo'llanildi: element tarkibini aniqlash uchun rentgen-flyuorestsent diagnostika, zarrachalar morfologiyasini o'rganish uchun elektron mikroskopiya, shuningdek mikro va nanostrukturalarning optik xususiyatlarini aniqlash maqsadida fotolyuminessent va Raman spektroskopiyasidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yangi modifikatsiyadagi rezonatorli kyuvetalar – fotonli tuzoqlar va optik-tolali texnika elementlarini qo'llashga asoslangan holda kuchsiz optik signallarni qayd etish bo'yicha eksperimental metodika ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan;

mikroto'lqinli parchalash usuli bilan sintez qilingan ZnO mikrostrukturalarining morfologik parametrlari va strukturaviy tuzilishini kompleks tahlili o'tkazilgan hamda ushbu namunalarda fotoluminesentsiya va kombinatsion sochilish spektrlarining shakllantirish mexanizmlari aniqlangan;

ZnO zarrachalarining xarakterli o‘lchamlarining kamayishi ultrabinafsha fotolyuminesensiya maksimumining qisqaroq to‘lqinlar sohasiga siljishi – kvant-o‘lchamli effektlarning namoyon bo‘lishi aniqlangan;

ilk bor foton tuzoqlarida rux va titan oksidlarining mikro- va nanostrukturalarida “kombinatsion opalesensiya” effektining vujudga kelish va kombinatsion sochilishning samaradorligini oshirish shartlari aniqlangan;

Rezonatorli kyuvetalarni qo‘llash TiO₂ va ZnO kukunlari uchun chiqish signalining kontrastligini oddiy kyuvetalarga nisbatan 10⁴÷10⁵ tartibga oshishi (kuchsiz optik jarayonlarning ko‘p cochilishi va rezonans kuchayishi) ta’minlangan;

ilk bor foton tuzoqlarida rux oksidi mikrostrukturalarida ultrabinafsha lyuminessensiya spektri uyg‘otuvchi nurlanishning intensivligiga bog‘liqligi aniqlandi: nurlanish intensivligi 10³ Vt/cm² bo‘lganda namunalarda spontan lyuminesensiyadan majburiy holatga o‘tish, ya’ni superlyuminesensiya holati kuzatilgan;

bir va ikki fotonli uyg‘otilgan lyuminessensiya spektrlari bir-biridan intensivligi, shakli va holati bilan farq qilishlari aniqlangan;

strukturalarning dispersligi ikkilamchi nurlanish spektrlarining shakllanishiga ta’sir qilishi kuzatilgan: namunalar o‘lchamining kichiklashi bilan ZnO lyuminesensiya polosasining maksimumi qisqa to‘lqin uzunligi tomon siljishi va TiO₂ mikrokukunlarida esa kombinatsion sochilish signalining intensivligi oshishi kuzatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Impuls-davriyli rejimda ishlaydigan lazer manbalari va rezonatorli kyuvetalar (fotonli tuzoqlar) asosida ishlab chiqilgan metodika fotoluminessensiya, yorug‘likning kombinatsion sochilishi hamda ularning nochiziqli analoglarining zaif signallarini ularning signallari intensivligini kuchaytirish orqali qayd etish imkonini beradi;

Taqdim etilgan metodika TiO₂ va ZnO ning iz miqdorlarini murakkab aralashmalar va geterogen materiallar tarkibida ularning ikkilamchi nurlanish spektrlari orqali samarali aniqlash imkonini beradi. Olingan natijalar fundamental va amaliy tadqiqotlarda qo‘llanilishi, shuningdek molekulyar spektroskopiya, kimyo, farmatsevtika va bo‘yoq-lak sanoatining texnologik jarayonlariga joriy etilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi lazer spektroskopiyasining zamonaviy yuqori aniqlikda ishlaydigan usullardan, qurilmalar va asbob-uskunalardan, eksperimental ma’lumotlarni o‘rganish va qayta ishlash usullaridan va ularning yaxshi takrorlanuvchanligi, yuqori sezgir rentgen tahlili va elektron mikroskopiyadan foydalanilganligi, shuningdek boshqa tadqiqotchilarning ishlari bilan mos kelishligi tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

O‘tkazilgan tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, olingan natijalar TiO₂ va ZnO ning mikro- va nanostrukturalarida impuls-davriyli lazer uyg‘otish sharoitida fotolyuminessent va Raman spektrlari shakllanishiga asos bo‘luvchi fizik jarayonlar haqidagi tasavvurlarni sezilarli darajada chuqurlashtiradi. Ish davomida

aniqlangan qonuniyatlar zarracha o'lchamiga xos effektlar, morfologik xususiyatlar va ularning tarkibiy nomutanosibligi ikkilamchi nurlanish spektrlari xarakteri hamda evolyutsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etadi.

Ish davomida olingan eksperimental natijalar moddaning kondenslangan holatida kechadigan jarayonlar haqidagi zamonaviy tasavvurlarni kengaytiradi. Ular mikro- va nanostrukturalarning ikkilamchi nurlanish spektrlari shakllanishi, evolyutsiyasi va modifikatsiyasi mexanizmlarini aniqlashtirib beradi hamda optik javobning o'lcham omillari, disperslik darajasi va geterogen muhit xususiyatlari ta'sirida qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Shu tariqa, ushbu ish turli morfologiya va zarracha o'lchamlariga asoslangan murakkab tizimlarning qonuniyatlarini tushunishga qo'shimcha hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari yangi funksional nanomateriallar va foton strukturalarini yaratishga oid keyingi nazariy va amaliy ishlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu dissertatsiya doirasida olingan ilmiy natijalar turli disperslik darajasiga ega moddalarning tuzilmasi va xossalarini maqsadli ravishda boshqarish imkonini beradi. Bu esa amaliyotda oldindan belgilangan fizik xususiyatlar majmuiga ega bo'lgan turli xil strukturalarni olish imkoniyatini yaratadi va bunday materiallar sanoat uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. TiO₂ va ZnO asosidagi mikro- va nanostrukturalarning morfologik, strukturaviy va optik xossalarini o'rganish asosida:

titan oksidi asosidagi mikro- va nanostrukturalarning fotolyuminessensiya spektrlaridan hamda hosil bo'lgan spektrlarning ob'yekt o'lchamlariga bog'liqligi hamda rux oksidi mikrostrukturalarini turli intensivlikli nurlanishlar bilan uyg'otilganda hosil bo'lgan majburiy lyuminessensiya xususiyatlari bo'yicha natijalari №MUK-2021-47 raqamli "Moslashuvchan organik fotovoltaiik energiya: yangi portativ qayta tiklanadigan energiya manbai" (2012-2022-yy.) mavzusidagi davlat ilmiy-texnika dasturidagi xalqaro fundamental loyihada titan va rux oksidlarini organik fotovoltaiik elementlarda yarim shaffof elektrod sifatida qo'llash uchun ularning fotolyuminessent xossalari orqali strukturaviy defektlarini tushuntirish imkonini bergan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 12-dekabrda 2/1255-2758-son Ma'lumotnomasi);

ilmiy natijalar Qozog'iston Respublikasi Fan akademiyasi Yadro fizikasi institutining "Sirdan kuchaytirilgan Raman spektroskopiyasi uchun innovatsion platformalarni ishlab chiqish" fundamental loyihasini bajarishda qo'llanilgan. Titan va rux oksidlari asosida ishlab chiqilgan mikro- va nanostrukturalar turli organik moddalar deteksiyasida kombinatsion sochilishning kuchaytirilgan spektroskopiyasi (SERS) uchun substratlar sifatida sinovdan o'tkazildi. Tajribalar ularning signalni kuchaytirishda yuqori samaradorligini tasdiqlab, organik molekulalarning past konsentratsiyasini sezgir aniqlashni ta'minladi va ilmiy natijalardan foydalanish bo'yoqlar va pestitsidlarni aniqlash chegarasini oshirish imkonini bergan (Qozog'iston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining 2024-yil 5-dekabrda Ma'lumotnomasi-Joriy etish dalolatnomasi);

tadqiqot natijalari “Ko‘p kanalli spektrometr yordamida zaif optik signallarni ro‘yxatdan o‘tkazish usuli” elektron dasturi ishlab chiqishga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi DGU 42928-son sertifikat) va kuchsiz optik signallarni qayd etish imkonini beruvchi impuls-davriyli rejimda ishlaydigan lazer manbalari hamda rezonatorlar (fotonli tuzoqlar) bo‘yicha ma‘lumotlarni “60610400 - Dasturiy muhandislik” yo‘nalishi bo‘yicha “Fizika” o‘quv dasturiga kiritishga xizmat qilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 12-dekabrda 02/01-01-141-son Ma‘lumotnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsion tadqiqotning asosiy natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida taqdim etilib, muhokama qilindi. Bu esa bajarilgan ishning yuqori dolzarbligidan dalolat beradi hamda olingan xulosalarning ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 10 tasi recenzentli ilmiy jurnallarda. To‘rtta maqola xorijiy nashrlarda chop etilgan: ikkitasi Scopus bazasida indekslanadigan jurnallarda, yana ikkitasi esa RINC bazasiga kiruvchi nashrlarda. O‘zbekiston OAK tavsiya etgan respublika jurnallarida 6 ta maqola e‘lon qilingan. Tadqiqot materiallari asosida Adliya vazirligi tomonidan bitta sertifikat ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 betni tashkil qilgan bo‘lib, 48 ta rasm, 1 jadvalni o‘z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari bayon etilgan, tadqiqot ob‘yekti, predmeti va tajriba usullari, shuningdek, tadqiqot mavzusining O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi hamda tadqiqotlarning ilmiy yangiligi, dissertatsiya ishi natijalarining ishonchliligi va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan, amaliyotga joriy qilinishi, respublika va xorijda tadqiqot ishining aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi haqida ma‘lumotlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Titan va rux oksidlari asosidagi mikro- va nanostrukturalarning sirt morfologiyasi, tarkibiy xususiyatlari va optik xossalari”** nomli birinchi bobida rux va titan oksidlari nanostrukturalarini olish usullariga bag‘ishlangan adabiyotlar sharhini o‘z ichiga oladi, lazer nuri ta‘sirida rux va titan oksidlarining mikro- va nanostrukturalarida INni tadqiq etish sohasidagi eksperimental ishlar tahlil qilingan.

Mavjud nazariy va eksperimental ma‘lumotlarni tahlil qilish asosida o‘rganilgan obyektlarning mikro- va nanostrukturalarining INni tadqiq etishdagi asosiy muammolari aniqlandi. Yechimi topilmagan muammolar aniqlanib, ular asosida mazkur dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyektlari va eksperimental usullar**» deb nomlangan ikkinchi bobida impuls-davriyli lazer nuri ta'sirida kukunsimon ob'yektlarda namunalar tayyorlash va ikkilamchi nurlanishni eksperimental tadqiqot metodikalari, shuningdek, moddalarda INning zaif signallari kuchaytirish haqida va impuls-davriyli rejimda ishlaydigan lazerli manbalar hamda rezonator kyuvetlari va stroboskopik tizimlar negizida qayd etish xususiyatlari borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ob'yektlari sifatida yuqori tozalikka ega bo'lgan TiO₂, ZnO mikro-va nanostrukturalari tanlab olingan. TiO₂ mikrokukunlari (markasi 7-3 OSCh) Sankt-Peterburgdagi «Krasniy ximik» zavodidan sotib olingan. Kukun asosan 29 dan 63 mkm gacha ko'ndalang o'lchamdagi sharsimon shakldagi zarralardan iborat. O'rganilgan namunalarning o'rtacha o'lchami 46 mkmni tashkil etadi.

ZnO nanokukunlari Aldrich katalogi bo'yicha (tozaligi 98%) sotib olingan. ZnO mikrostrukturalarini sintez qilish mikroto'lqinli parchalanish usuli bilan amalga oshirildi: 2 g ZnO kukuni (Aldrich, 98% tozalik) va 1 ml etilen glikol eritmasi 20 daqiqa davomida agat stupkasida aralashtirildi va maydalandi. So'ng 2 g miqdordagi aralash kukun alyuminiy oksiddan tayyorlangan tigelga normal atmosfera sharoitida xona haroratida mikroto'lqinli pechning markaziga joylashtirildi. Mikroto'lqinli pechda 15 daqiqa davomida 180° C da ishlov berildi. Natijada kukun uchquni boshladi va cho'zilgan tayoq shaklidagi (hajmli) qattiq struktura vujudga keladi. Olingan material asosan mikrometr o'lchamdagi geksagonal sterjen (tayoqcha) shaklidagi zarralardan iborat: zarralarning uzunligi 15÷18 mkm va kengliklari esa 1÷8 mkm ni tashkil etadi.


Namunalar yuza morfologiyasi skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) usuli bilan SEM-EVO MA 10 (Carl Zeiss, Germaniya) elektron mikroskopida o'rganildi. Elementlar tarkibi AZtec (Oxford Instruments, Buyuk Britaniya) markali energodispersion elementlar analizatori yordamida aniqlandi. Strukturasi va fazaviy tarkibi esa «PANalytical Empyrean» (Niderlandiya) rentgen difraktometri bilan tekshirildi.

Yorug'likning kombinatsion sochilish (YKS) va fotoluminessentsiya (FL) spektrlari uyg'otish va qayd qilish uchun tolali-optik metodikadan foydalanildi (1-rasm). Uyg'otuvchi manba sifatida spektrning ko'rinadigan sohasida 510,6 va 578,2 nm to'lqin uzunlikdagi generatsiya chiziqlariga ega bo'lgan mis bug'laridagi lazer (1) qo'llanildi. Generatsiya monoxromatik rejimda ($\lambda=510,6$ nm) amalga oshirilib, bunda lazerning sariq chiziqi ($\lambda=578,2$ nm) filtr bilan bostirildi. Lazerning uyg'otuvchi nuri (1) svetovod (6) yordamida namunali kyuveta (7) ichiga yo'naltirildi. IN diametri 100 mkm bo'lgan ikkinchi svetovod (6) yordamida tolali-optik minispektrometrning kirish tiriqishi (8)ga yo'naltirildi. Minispektrometrdan ikkilamchi nurlanish spektri haqidagi raqamli ma'lumotlar USB-kabel (9) orqali kompyuterga (10) uzatildi. Lazerning o'rtacha nurlanish quvvati 10 Vt. Nurlanish yuqori quvvat 10⁵ Vtga ega bo'lgan qisqa (20 ns) va katta chastotali (10⁴ Hz) impulslari orqali impuls-davriyli rejimida ishlaydi. FL spektrlarini o'rganish uchun eng samarali generatsiya chizig'i - lazer yashil chizig'i (510,6 nm)ning ikkinchi optik garmonikasi ($\lambda=255,3$ nm) ekanligi tajribada aniqlandi. Lazer nurlanishi yuqori quvvatli bo'lganligi uchun nohiziqli-


optik kristallar (BaB_2O_4)dan foydalanish orqali lazerning generatsiya liniyalarining chastotalarini samarali ikki baravar oshirish va qo‘shish imkonini beradi. Beqaror rezonator rejimida ishlaydigan mis bug‘laridagi lazerning nurini uzun fokusli linza bilan nohiziqli optik kristal BaB_2O_4 ga fokuslash mumkin. Kristal shunday kesilganki, sinxronizm sharti boshlang‘ich lazer nurlanish chastotalarini ikki baravar oshirish uchun bajariladi. Natijada kristalning chiqishida 255,3 nm to‘lqin uzunlikdagi ultrabinafsha (UB) nur paydo bo‘ladi. Lazerning ko‘rinadigan diapazondagi nurlanish chizig‘lari BaB_2O_4 kristalidan keyin joylashtirilgan absorbsion filter yordamida bartaraf etiladi.

Mikro- va nanostrukturalarda (ayniqsa, kukunlarda) IN signalini kuchaytirish uchun biz metall kyuvetalarning maxsus konstruksiyalarini ishlab chiqdik: rezonator kyuvetalar - fotonli tuzoqlar turli xil bo‘lib, ularning ichida nurl ko‘p marta qaytadi va sochiladi (2-rasm).

Foton tuzoqlaridan foydalanish g‘oyasi shundaki, tuzoqqa tushgan birlamchi (lazer) nurining katta qismi ikkilamchi nurlanishga o‘tadi. Kyuvetalarni metallardan yasash mumkin - ular da ikkilamchi nurlanish jarayonlarini uyg‘otish ehtimolligi o‘ta yuqoridir.



1-rasm. Eksperimental qurilmaning sxemasi. 1 – mis bug‘laridagi lazer; 2 – yig‘uvchi linza; 3 – nohiziqli BaB_2O_4 kristali; 4 – svetovod; 5 – svetovod tutqichi; 6 - svetovod; 7 – namunali rezonatorli kyuveta (foton tuzoq); 8 – FSD-8 minispektrometri; 9 – USB-kabel; 10 – kompyuter.



2-rasm. Silindrsimon (a) va konussimon (b) rezonatorli kyuveta (fotonli tuzog‘i) qurilmasi: 1 – uyg‘otuvchi nurlanish; 2 – tekshirilayotgan modda (kukun); 3 – absorbsion yorug‘lik filtri; 4 – ikkilamchi nurlanish; 5 – kiruvchi svetovod; 6 – chiquvchi svetovod.


Tajriba jarayonida duraluminiydan tayyorlangan foton tuzog‘idan foydalanildi. Foton tuzog‘ining korpusida silindrsimon yoki konus shaklidagi bo‘shliq kesilgan bo‘lib u ishchi hajm bo‘lib, tekshirilayotgan modda bilan to‘ldiriladi. Lazerning uyg‘otuvchi nurlanishi (1) svetovod (5) yordamida kukun (2) joylashgan kyuveta ichiga yo‘naltiriladi.

Kyuvetaning ustiga chiquvchi svetovod (6) qo‘yilgan bo‘lib, uning yordamida ikkilamchi nurlanish (4) minispektrometrga yo‘naltiriladi. (5) va (6) svetovodlar diametri 100 mkm bo‘lgan kvardsdan tayyorlangan optik tolalardan iborat.

Tajribada konus shaklidagi kyuveta IN signallarini kuchaytirish uchun eng maqbul variant ekanligi aniqlandi. IN intensivligini qo‘shimcha ravishda oshirish zarur bo‘lganda, kyuva korpusining ustiga 2 mm qalinlikdagi OG-1 (3) absorbsion yorug‘lik filtri kiritildi. Yorug‘lik filtrlaridan foydalanish IN spektrida YKS signalini 800 sm^{-1} masofaga to‘liq o‘tkazgan holda lazer nurining intensivligini deyarli 100 baravar kamaytirish imkonini berdi. Yorug‘lik filtrlari «o‘tish» sxemasidan foydalanilgan, chunki, lazer nurlanishi kukunda ko‘p marta sochilishi tufayli uning intensivligi kyuvetadan chiqishda juda zaiflashgan.

Dissertatsiyaning **“Titan dioksidi mikrostrukturalarining morfologik, tarkibiy va optik xususiyatlari”** nomli uchinchi bobi xona haroratida titan dioksidi mikrokukunlarida IN spektrlarining shakllanish qonuniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan hamda ushbu ob‘ektlarning morfologiyasi va strukturasi bo‘yicha eksperimental ma’lumotlar keltirilgan.

TiO₂ mikrokukunlarining SEM-tasviri 3-rasmda ko‘rsatilgan. O‘rganilayotgan material asosan o‘lchamlari 29 dan 63 mkmgacha bo‘lgan sferik shakldagi zarralardan iborat. O‘rganilgan namunalarning o‘rtacha o‘lchami 46 mkmga teng.




Energodispersion spektrometr yordamida o‘tkazilgan elementlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan namunada kremniy va alyuminiy aralashmalari mavjud. Tekshirilayotgan TiO₂ kukunidagi aralashmalar tarkibi kiruvchi komponentlarning qiymatlari massa ulushlarida quyidagi qiymatlarga teng (%): Si – 1,6; Al – 0,8.

3-rasm. TiO₂ mikrokukunlarining SEM-tasviri.


4-rasmda turli konstruksiyali kyuvetalarda bir xil rejimida olingan TiO₂ mikrokukunlarning YKS spektrlari keltirilgan. 1 - chiziq oddiy (an’anaviy) silindrsimon kyuveta (kyuvet diametri - 18 mm)da, 2 - chiziq silindrsimon bo‘shliqli rezonator kyuveta (2a-rasm)da va 3 - chiziq konus shaklidagi bo‘shliqli rezonator kyuveta (2b-rasm)da olingan (rezonator kyuvetlardagi kapillyar diametri 3 mm). Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, rezonator kuvetlardagi YKS signali katta diametrli oddiy silindrli kyuvetaga qaraganda 1000 barobar katta.

5-rasmda foton tuzoqlariga (2-rasm) joylashtirilgan TiO₂ mikrokukunlarining YKS spektrlari keltirilgan. Spektrlardan ko‘rinib turibdiki, foton tuzoqlari va svetovodlardan foydalanish IN spektrida uyg‘otuvchi nur intensivligiga nisbatan YKSning nisbiy intensivligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Bu foton yo‘lining uzayishi, ya’ni, uyg‘otuvchi nur fotonining tuzoqning devorlaridan ko‘p marta qaytishi va moddaning bir jinsli bo‘lmagan qismlaridan sochilish hisobiga

ro'yi beradi. Biroq, YKSning eng intensiv signallari TiO₂ mikrokkunlarining o'rtacha o'lchami 29 mkm bo'lgan hol uchun kuzatiladi (5-rasm, 1 - chiziq). Buning sababi shundaki, bunday strukturalarga mikrozzarrachalar o'lchamlariga nisbatan kichik bo'lgan to'lqin uzunlikdagi uyg'otuvchi nur tushganda, rezonatorlar (foton tuzoqlari)ning chegaralarida yorig'lik ko'p marta qaytishi natijasida nurlarning to'planishi bilan bog'liqdir. Bu bizning oldingi tajribalarimizda kuzatilgandek, TiO₂ mikrokkristallaridagi YKS intensivligining keskin oshishiga olib keladi (kombinatsion opalessensiya effekti). Adabiyotlar tahlillariga ko'ra, anataz YKS spektrida 3 ta E_g-maksimum - 144, 197 va 639 sm⁻¹ (ular mos ravishda E_g(1), E_g(2) va E_g(3) deb belgilangan), 2 ta B_{1g}-maksimum (399 va 519 sm⁻¹) va A_{1g}-maksimum (513 sm⁻¹) kuzatiladi. 513 va 519 sm⁻¹ yaqinida joylashgan maksimumlar faqat past haroratda namoyon bo'ladi, 197 sm⁻¹ maksimumi esa nisbatan kichik intensivlikka ega. Eng informativ va intensiv maksimum 144 sm⁻¹ (E_{g1}) dir. Bizning holatimizda, xona haroratida anatazning YKS spektriga xos bo'lgan barcha maksimumlarni kuzatdik.



4-rasm. TiO₂ mikrokkunlarining (d_{o,rt}=29 mkm) YKS spektrlari: (1) - oddiy silindrsimon kyuvetada, silindrsimon bo'shliqli rezonator kyuvetada (2) va konus shaklidagi bo'shliqli rezonator kyuvetda (3) (I_{uyg'}~10⁵ Vt/sm²).



5-rasm. Turli o'lchamdagi TiO₂ mikrokkunlarining mis bug'laridagi lazerning yashil chizig'i (λ_{uyg'}=510,6 nm) bilan uyg'otilgandagi YKS spektrlari: (1) - d_{o,rt}=29 mkm; (2) - d_{o,rt}=40 mkm; (3) - d_{o,rt}=51 mkm; (4) - d_{o,rt}=63 mkm (I_{uyg'}~10⁵ Vt/sm²).

Bir jinsli muhitda ikkilamchi nurlanish spektrida YKS intensivligining I_{YKS} tushayotgan nurga I_{uyg'} nisbatini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin

$$\frac{I_{YKS}}{I_{uyg'}} = \sigma N L \delta \Omega, \quad (1)$$

bu yerda σ – YKS samarali kesimi (σ≈10⁻²⁸ sm⁻²), N – zarrachalar konsentratsiyasi, L – namunada uyg'otuvchi nur fotoning o'tgan yo'li, Ω – o'rganilayotgan nurlanish burchagi. Uzunligi ~1 smga ega bo'lgan oddiy

kyuvetalarda kukunlarni tadqiqot etishda $\delta\Omega=1$ sr burchakda ikkilamchi nurlanish spektrida YKS intensivligining I_{YKS} tushayotgan nurga $I_{uyg'}$ nisbati quyidagiga teng:

$$\frac{I_{YKS}}{I_{uyg'}} \approx 10^{-6} \quad (2)$$

Shunday qilib, bir jinsli muhitli joylashgan kyuvetaning chiqishida YKS intensivligi uyg'otuvchi nurlanish intensivligidan million baravar sust.


Bizning tadqiqotlarda $\sim 1 \text{ sm}^3$ ishchi hajmga ega bo'lgan fotonli tuzoq qollanilganda ultradispersli shaklda bo'lgan moddalarning IN spektridagi YKSning intensivligi oddiy (an'anaviy) kyuvetalar bilan taqqoslaganda $10^4 \div 10^5$ marotabaga oshishi aniqlandi:

$$\frac{I_{YKS}}{I_{uyg'}} \approx 10^{-1} \div 10^{-2} \quad (3)$$

Bu hol metall resonator kyuveta (fotonli tuzoq) ichida uyg'otuvchi nurlanish fotoninig bosib o'tgan to'liq yo'li $L \sim 10^4$ smga tengligi bilan tushuntiriladi. Shunday qilib, yaratilgan fotonli tuzoqlar qo'llanilganda ultradispersli shakldagi moddalarning YKS intensivligi kyuvetaning chiqish qismida oddiy kyuvetalar bilan taqqoslaganda $10^4 \div 10^5$ tartibga oshadi. Misol uchun, ikkilamchi nurlanish spektrida TiO_2 mikrokukunlarining YKS chiziqlari intensivligi (4-rasm va 5-rasm), haqiqatdan ham mis bug'laridagi lazerning uyg'otuvchi nuri intensivligi bilan qariyb tenglashib qoladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobida **“Rux oksidining mikro- va nanostrukturalarining morfologik, tarkibiy va optik xususiyatlari”** deb ataladi, unda foton tuzoqlariga joylashtirilgan rux oksidining mikro- va nanostrukturalarining yorug'likning kombinatsion sochilishi va fotoluminessentsiya spektrlarining shakllanish qonuniyatlarini o'rganishga alohida ahamiyat beriladi. Mikroto'lqinli sintez usulida olingan rux oksid mikrostrukturalarining morfologiyasi va tuzilishi o'rganildi.


SEM ma'lumotlariga ko'ra (6-rasm), o'rganilayotgan material asosan millimetrli o'lchamdagi geksagonal sterjen (tayoqcha)lar shaklidagi zarralardan iborat.




6-rasm. ZnO mikrostrukturalarning SEM-tasviri.

Bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra, ayrim zarralarning uzunligi $15 \div 18 \text{ mkm}$ bo'lib, ularning eni esa $1 \div 8 \text{ mkm}$ ni tashkil etadi. Olingan namunalar solishtirma sirtning kichik qiymatlariga ega bo'lishlariga qaramasdan, sezilarli fotokatalitik faollikka ega. Bu holat, ehtimol, ZnO namunalarining o'ta kristallligi (7-rasm) va past nuqsonliligi va tozaligi bilan izohlanadi (8-rasm).


Rentgen struktura tahlili (7-rasmga qarang) sintez qilingan ZnO namunalarning tuzilishida bitta faza - rux oksidi strukturasi P6₃mc vyurtsit turiga mos kelishini ko'rsatdi. Rentgenogrammalar tahlili asosida tekshirilayotgan materialda qo'shimcha maksimumlar kuzatilmagani aniqlandi. 9-rasmda turli intensivlikda ($\lambda_{uyg} = 255,3$ nm) olingan ZnO mikrostrukturalarning FL spektrlari keltirilgan. Uyg'otuvchi nurlanishning kichik intensivliklariga FL spektri



7-rasm. ZnO mikrostrukturalarning rentgenogrammasi.



8-rasm. ZnO mikrostrukturalarning elemen tarkibi.



9-rasm. ZnO mikrostrukturalari ($d_{0,rt} = 2$ mkm)ning uyg'otuvchi nurlanishning turli intensivliklarida olingan FL spektrlari: (1) chiziq $I_{uyg} = 5$ mos keladi; (2) - $I_{uyg} = 1$; (3) - $I_{uyg} = 15$; (4) - $I_{uyg} = 18$; (5) - $I_{uyg} = 21$; (6) - $I_{uyg} = 24$ ($I_{uyg} - 10^3$ Vt/sm²).

386 nm maksimumga ega bo'ladi (1 va 2-chi chiziqlar). Bu maksimum A-eksitonlarning ko'p fononli annigilatsiya seriyasidagi 3LO polosasiga mos keladi. Aralashmalar va nuqsonlar konsentratsiyasi kam bo'lgan yarim o'tkazgichli materiallarda uyg'otuvchi nurlanishning yuqori


intensivliklarida aralashma sathiga nurlanish o'tish intensivligining to'yinishi ro'y beradi va erkin eksitonlarning ko'p fononli annigilatsiyasining quyidagi jihati alohida qiziqish uyg'otadi: majburiy nurlanishga o'tish imkoniyati bujudga keladi. Ma'lumki, erkin eksitonda invers taqsimot amalga oshmaydi, eksiton foton va fononga bo'linganda esa inversiya avtomatik ravishda paydo bo'ladi. Uyg'otish intensivligi $15 \cdot 10^3$ Vt/sm² dan ortiq bo'lganda (3-5 chiziqlar) eksiton lyuminesent-siya chizig'ining torayishi kuzatiladi, uning intensivligi birlamchi nur intensivligi yanada oshganda nochizikli ravishda o'sadi. Bundan tashqari, FL chizig'ining torayishi va FL spektrining maksimumining 4 nm gacha uzun to'lqinli sohaga siljishi kuzatiladi. Intensivlik $24 \cdot 10^3$ Vt/sm² (6-chiziq) bo'lganda bog'liqlik grafida to'yinish sodir bo'ladi.

ZnO mikrostrukturalarida majburiy nurlanishni kuzatish maqsadida biz UB luminessentsiyaning ikki fotonli uyg‘otish intensivligiga bog‘liq tadqiqotini o‘tkazdik (10-rasm). Ko‘rinib turibdiki, ko‘rsatib o‘tilgan bog‘liqlik nochiziqli va chegaraviy xususiyatiga ega bo‘lib, majburiy nurlanish belgilaridan birini anglatadi. Biroq spektrda yetarlicha darajada torayish kuzatilmayotgani, tajribada majburiy FL uchun faqat chegaraviy effektlar vujudga kelayotganlikdan dalolat beradi.


FL intensivligi (I) tahlili uchun quyidagi ifodadan foydalanildi

$$I = \eta \cdot I_{uyg'}^\alpha, \quad (4)$$

